

10. Sonlarni qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:

Xaritalar

Xona birliklari,
xona birliklari bo'yicha
amallar bajarish.



$$\star + \star + \star = 30$$

$$\star + \star + \star = 24$$

$$\star + \star - \star = 5$$

$$\star + \star + \star = ?$$

1. Nashriyotda O'zbekistonning 41 dona xaritasi bosmaga tayyorlandi, bu Dunyo xaritasidan 11 ta ko'p. Quyidagi ifoda nimani ko'rsatadi?

$$41 - 11 \quad 41 + 11 \quad (41 - 11) + 41 \quad 41 - (41 - 11)$$

Qaysi ifodaga savol berib bo'lmaydi?

2. Tenglamani yeching.

$$x + 10 + 12 = 35$$

$$11 + y + 10 = 44$$

$$24 + t + 13 = 59$$

$$z + 15 + 5 = 40$$

$$10 + 23 + p = 57$$

$$12 + 35 + n = 98$$

3. Ushbu shartlar bo'yicha ifodalar tuzing:

a) Azizda s ta xarita, Anvarda esa undan d ta kam xarita bor. Anvarda nechta xarita bor?

b) Kolleksiya to'plovchida k ta qadimiy xarita va n ta zamonaviy xarita bor. Kolleksiya to'plovchida hammasi bo'lib nechta xarita bor?


d) Muzeyda O'zbekistonning t ta xaritasi va dunyoning p ta xaritasi bor. Dunyo xaritasi nechta ko'p?

4. Uzunligi 10 cm bo'lgan AB kesma chizing. Kesma uzunligini detsimetrlarda yozing. Uning o'rtasi – C nuqtani belgilang.


10. Sonlarni qo'shish va ayirish



5. Chizma bo'yicha o'zaro teskari bo'lgan uchta masala tuzing.



6. Xaritaning ikki detsimetriga 7 ta belgini joylashtirish kerak. Agar har bir belgining kengligi 2 cm, belgilar o'rtasidagi masofa 1 cm bo'lsa, ularning hammasini xaritaga joylashtirish mumkinmi? Sonlar nuridan foydalanib, savolga javob bering.



7. Topib o'qing.

A	$41 + 51$	I	$58 - 21$	N	$69 - 24$
B	$21 + 34$	K	$89 - 61$	O	$24 + 71$
D	$48 - 22$	L	$79 - 60$	Q	$23 + 53$
H	$29 - 14$	M	$12 + 22$	T	$41 + 43$

55	37	19	37	34

55	37	19	92	45

15	37	28	34	92	84

95	19	84	37	45	26	92	45

76	37	34	34	92	84



8. Xarita to'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'ozga chizilgan. Uning bo'yi 14 dm, eni undan 4 dm qisqa. Xaritaning perimetrini hisoblang.